

TILSHUNOSLIKDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV**Qurbonova Sevara Asrorovna**

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrası 1- bosqich magistranti.

E-mail: squrbonova0912@gmail.comIlmiy rahbar: DSc, prof. **Sadullayeva Nilufar Azimovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixolingvistika fani haqida atroflicha tushuncha berilgan bo'lib, psixolingvistika tushunchasi, uning ilm-fandagi salmoqli o'rni va nutqda psixolingvistikani namon etishga ta'sir o'tkazuvchi omillar ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, bu soha vakillarining fanga nisbatan turli til yondashuvlari va psixolingvistikaning rivojiga qo'shgan hissalari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Psixolingvistika, nutq faoliyati, muloqot, psixologik fikrlash, nutq terapiyasi.

Kirish

Psixolingvistika-inson nutq faoliyatining psixologik va lingvistik jihatlarini, nutq aloqasi va individual nutq-aqliy faoliyat jarayonlarida tildan foydalanishning ijtimoiy va psixologik jihatlarini o'rganadigan fan. Psixolingvistika til o'rganish va undan muloqotda foydalanish asoslarini belgilovchi soha bo'lib, fikrlash jarayonlarini tahlil qilishda, psixologiya va tilshunoslikning bir paytning o'zida uyg'unlashuvini namoyon etadi. Bu jarayon o'z faoliyati davomida bir qancha fanlarni o'zida qamrab oladi. Tilshunoslarni doimiy qiziqtirib kelgan muzokaralardan biri bu inson bilimining muhim belgisi bo'lgan til tuzilishining formal ta'rifi edi.

Bu tuzilma o'zida nutq tovushlari, ularning mazmunini, shuningdek tovush va mazmunni birlashtiruvchi murakkab grammatik tizimlarni jamlaydi. Psixologlar esa bolalar bu tizimlarni qanday darajada o'zlashtira olishini va bu tizimlarning so'zlashuv jarayonidagi o'rni haqida bilishni xoxlaydilar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Tilshunoslik fanida psixologlarni o'ziga jalb qiluvchi narsa shuki, bu fan inson bilimlarini muhim sohalaridan birini mukammal va ilmiy yo'l bilan ta'riflaydi. So'nggi yillarda Nozim Xomskiy va uning Massachuset texnologik institutidagi hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan tilshunoslikka mutlaqo yangicha yondashish uslubi psixologlarga katta madad bo'ldi.

Nozim Xomskiy, psixolingvistikaga oid qiziqishlarni o'rganish va o'zining nazariyalarini rivojlantirish uchun mashhur bo'lgan tadqiqotchilar orasidan joy oladi. U til o'rganish, tili o'zgartirish, va insonlar orasidagi munosabatlarga oid yangi ko'nikmalar yaratishda o'z ishtirokini ko'rsatgan. Uning nazariyasi tilni o'rganish va fikr o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va tushuntirishning ahamiyatiga e'tibor qaratadi. U tilning o'rganish jarayonida fikr va madaniyatning o'rtasidagi aloqalarni ko'rib chiqishni tushuntiradi. Xomskiyning nazariyasi insonning til bilan fikrini tahlil qilish va o'zini ifodalashning psixologik jarayonlari ustida ham tafakkur qiladi.

Hozirgi zamon tilshunosligining grammatika sohasidagi tadqiqotlari o'z navbatida psixologiyaga katta ta'sir ko'rsatdi. Ular nazariy eksperimental jihatdan o'rganish psixologiyasini boyitib, psixolingvistikaning keyingi rivojlanish bosqichida muhim omilga aylandi.

Shu paytgacha psixolingvistika fanining rivojiga yuzlab taniqli dunyo olimlari o'z hissasini qo'shib kelgan. Jumladan, experimental psixologiyaning asoschisi sifatida tanilgan Vilgelm Vundt psixologik fikrlash jarayoni haqidagi fikriga ko'ra, u bu jarayon mexanik ravishda sodir bo'lgan deb o'ylamagan. Aksincha, u inson xoxish-irodasi tashkiliy jarayon uchun juda muhim deb da'vo qildi. Vundtning so'zlariga ko'ra, xoxish va qat'iyat -bu odamlarning diqqatini xohlagan joyiga yo'naltirishga imkon beradigan jihatlari. Vundt appersepsiya (idrok qilish) jarayonini iroda yoki erkin tanlov harakati deb hisoblaganligi sababli, uning psixologik fikrlash maktabi ixtiyoriylik deb nomlangan.

Yana bir us olimi A.A. Leontyev ijtimoiy fanlarda psixolingvistikaning eng faol targ'ibotchisi bo'ldi. Uning g'ayratli, harakatchan sa'y-harakatlari va ilmiy-adabiy faoliyati tufayli psixolingvistika mustaqil, to'liq huquqli ilmiy fan sifatida tan olingan. Psixolingvistikani o'rganishning asosiy mavzularidan biri bu nutq faoliyati bo'lib, A.A. Leontiev ta'kidlaganidek, paydo bo'lganidan keyin deyarli chorak asr davomida birinchi navbatda nutq faoliyati nazariyasi sifatida rivojlandi. Nutqni shakllantirish (faol, maqsadli, ongli nutq-fikrlash faoliyati sifatida), nutq terapevtining kasbiy faoliyatining asosiy mavzusini tashkil etadi, shu bilan birga boshqa defektologlarning maxsus pedagogik ishining asosiy yo'nalishlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlashni istardimki, psixolingvistikaning uslubiy arsenali (boshqa "Nutqshunoslik" fanlari bilan taqqoslaganda) nutq faoliyatining shakllanishi va faoliyatining qonuniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini to'liq va to'liq o'rganishga imkon beradi. (V.P.Gluxov, 2005,5-b)

Maxsus pedagogikada psixolingvistikaning faol targ'ibotchilaridan biri V. K. Vorobyov esa ko'pchilik nutq terapistlari tomonidan tasdiqlangan fikr: "psixolingvistika — bu nutq terapiyasi metodologiyasi", degan konseptual tezisni shakllantiradi. "Psixolingvistika nafaqat nutq terapiyasi, balki umuman olganda nutqni tuzatish jarayoni va pedagogik faoliyat hisoblanadi", deb qo'shicha qiladi.

XX asrning eng buyuk olimlaridan biri bo'lgan Lev Semyonovich Vygotskiyning asarlari psixolingvistikaning nazariy va uslubiy asoslarini yaratishda muhim ahamiyatga ega edi. L.S. Vygotskiy-A.N. Leontyev, A.R. Luriya, A.N. Sokolov, P. ya. Galperin, D.B. Elkonin, L.I. Bojovich, A.V. Zaporozets va boshqalar tegishli bo'lgan mahalliy psixologik maktabning yaratuvchisi. ushbu maktab an'alarining davomchilari bo'lgan olimlar orasida A.V. Petrovskiy, V.V. Davydova, N.I. Jinkina, V. P. Zinchenko, A.A. Leontyeva. L. S. Vygotskiy va uning maktabi nafaqat mahalliy, balki jahon psixologiyasi va pedagogikasiga ham katta ta'sir ko'rsatdi (V.P.Gluxov, 2005,5-b).

Leontyevning fikricha, L. S. Vygotskiy "ko'p o'n yillar davomida nutq psixologiyasi va psixolingvistikasining keyingi rivojlanishini bashorat qilishga muvaffaq bo'ldi ".¹⁸⁸ L. S. Vygotskiyning psixolingvistika uchun muhim bo'lgan ba'zi g'oyalarini ta'kidlaymiz. Bu, birinchi navbatda, nutqni ishlab chiqarish jarayonlarining evristik g'oyasi va ularning umumiy psixologik, differentsial-psixologik va ijtimoiy-psixologik omillari bilan shartlanishi hisoblanadi. L.S. Vygotskiy birinchilardan bo'lib matnning psixologik xususiyatlari to'g'risida savol berdi va grammatik va real (psixologik) predikativlik tushunchalarini ajratib ko'rsatdi; u umumiy psixologik kategoriya sifatida ma'noning kontseptual ta'rifiga va predmet ma'nosi tushunchasiga egalik qiladi. L.S. Vygotskiy tomonidan rejalashtirilgan nutq faoliyatini o'rganishning ba'zi yo'nalishlari, A.A. Leontyevning fikricha, hali psixolingvistikada sezilarli darajada rivojlanmagan.

¹⁸⁸ Глухов В.П. Основы психоллингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. — М.: АСТ: Астрель, 2005. — 17 с. — (Высшая школа).

Avvalo, bu nutqni refleksli boshqarish muammosi va ularning o'zaro ta'sirida nutqning turli darajadagi xabardorligini tahlil qilishdan iborat.

Tahlil va natijalar:

Kuzatilayotgan jarayon va yashirin tuzilmalar o'rtasidagi farqni yana bir marotaba izohlab o'tish lozim. Boshqa tillar qatori ingliz tilida ham bu farq til va nutq tushunchalarida o'z ifodasini topgan: “nutq” (speech) so'zi o'rniga qo'llanishi mumkin bo'lgan fe'lga ega. “til” (language) esa bunday xususiyatga ega emas. Nutq jarayonida: “He speaks the English language” (U ingliz tilida so'zlaydi) deyish mumkin. So'zlamog- bu biron bir ma'noga ega tovushlarni ifoda qilmoq va bu tovushlarning ma'nosi, ularning haqiqatan ham ingliz tili bilan bog'liq ekanligi bilan belgilanadi. Nutq – bu faoliyat bo'lib, uni eshitish mumkin, uni magnitafon lentasiga yozib olish mumkin. Ammo magnitafonga ingliz tilini yozib olib bo'lmaydi. Faqat ingliz nutqini yozib olib bo'ladi. Biz bir-birimizning nutqimizni ingliz tilini bilganimiz uchun tushuna olamiz. Til –bu tilimizning ma'lum bir tarmog'i. Ingliz Tili – bu ingliz tilida so'zlovchi inson bilimlarining ma'lum yig'indisidir. Bilimning bunday tizimlari ta'rifi tilshunoslikni an'anaviy xususiyati hisoblanadi, psixologiya esa, muntazam ravishda “inson faoliyati haqidagi fan”, deb baholanadi. Ammo bu ikki fan o'rtasida chegarani aniqlash murakkab hisoblanadi. Biz faoliyatni, uning tuzilish nazariyasini bilmasdan turib, o'rgata olmaymiz va aksincha, tuzilmani ham faoliyatdan chetlab tahlil qilolmaymiz. Transformatsion grammatika bo'yicha asarlari bilan hozirgi zamon tilshunosligiga katta hissa qo'shgan Nozm Xomskiy tilshunoslikning vazifasini bilish va insoniyatning umumiy xususiyati atamaları orqali ifodalaydi.

Uning fikricha, tilshunoslik bunday tahlilda fikrlashni ma'lum aspektlarini o'rganuvchi psixologiyani oddiy bir bo'limi hisoblanadi. Psixologiya fani yillar davomida mana shu aspektlar ma'nosi bilan qiziqib kelgan. Shu borada psixologiyaning turli sohaları bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Hatto Kalamushlarning labirintdagi faoliyati ham “o'rganish” va “harakat qilish” atamaları borasida ko'plab muzokaralarga sabab bo'ldi. Psixologlar bahslari asosini kalamushning labirintdagi faoliyati va uning u yerda nimani o'rganishi borasidagi farqi tashkil etgan.

Xuddi shu muammoga bu til qobiliyati, til haqida bilim (linguistic competence) va til faoliyati (linguistic performance) tegishli psixolingvistik muammolarni ko'rib chiqqanda duch kelishimiz mumkin. Buning asosini ham insonning nazariy jihatdan so'zlashish va tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi va aniq vaziyatlarda nimani so'zlagani va tushunishi o'rtasidagi farq tashkil qiladi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, psixolingvistika fani rivojiga o'z zamonasining yetuk olimlari: V. Vundt, N. Xomskiy, V. K. Vorobyov, L. S. Vygotskiy, A. N. Leontyev, A.R. Luriya va boshqa ko'plar o'z qarashlari va yondashuvlari asosida hissa qo'shganlar. Vorobyov psixolingvistikani o'z konsepsiyasida nutq terapiyasi metodologiyasi deb atagan bo'lsa, Vilgelm Vundtning qarashi bo'yicha inson xoxish-irodasi psixolingvistik jarayonning asosiy omili hisoblanadi. Har bir olimning shaxsiy konsepsiyasi, psixolingvistikaning ma'lum bir bir jihatlarini to'laonli yoritishga, oldin inson anglamagan ilmiy doiralarni tushunishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://journal.fledu.uz/uz/psiholingvistika-nut-ij-faoliyatining-psihologik-va-lingvistik-zhi-atlari/>
2. <http://library.navoiy-uni.uz/files/2.%20sh.usmonova.%20psixolingvistika.pdf>

3. V.P.Gluxov. Основы психолингвистики: учеб. пособие для студентов педвузов. — М.: АСТ: Астрель, 2005. — 17 с, — (Высшая школа)
4. Sultonova Umida Ahmedjonovna “Psixolingvistikada adabiy me’yor va uning mazmun mohiyati” dissertatsiya